

## **QORAQALPOQ XALQINING MADANIYATI**

**Ruslan Asliddinovich G‘aybullayev**

Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik

fakulteti Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish yo’nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining madaniyatini tashkil topishi, uning shakllanishi va rivoj topishi haqida so’z boradi

**Kalit so‘zlar:** jirov, qirqqiz, Oydo’stbiiy, Edigey

Qoraqalpoqlar uzoq yillar davomida ko’chmanchilik turmush tarzidan o’troqlikka o’tish jarayonini boshidan kechirdilar. Aholining asosiy qismi o’tov va paxsa uylardan iborat ovullarda yashardi. Keyinchalik qo’rg’on (qal’a) va shaharlar vujudga keladi. Qo’rg’onlarning to’rt tomoni devor yoki baland tepalar bilan o’rab olinardi. Qoraqalpoqlar bir necha urug’lardan shakllangan bo’lib, har urug’ a’zosi o’z urug’ining mustahkamligini ta’minalashga intilardi. Bir urug’ ichida qiz olish, qiz berish taqiqlangan edi. Shu boisdan boshqa urug’dan qiz olib qochish odatiy hodisa hisoblanardi. Ma’lum vaqt o’tgach qiz olib ketilgan joy ma’lum qilinib, qiz tomonning ota-onasi, yaqin qarindoshlari va urug’ oqsoqoli turli sarpolar bilan siylanib, to’yga rozilik olinardi. Urug’ ruhoniysi kelin-kuyovni nikohlاب qo’yardi. To’yda baxshilar dostonlardan qo’shiqlar kuylashardi, aytishuvlar avjiga chiqardi. Polvonlar va botirlar kurashga tushardi. Islom dini qoraqalpoqlarning rasmiy dini edi. Aholi orasida turli yo’nalishdagi tasavvuf tariqatlari keng tarqalgan edi.

Hunarmadlar 12-13 yoshli bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar sirlarini o’rgatganlar. Qoraqalpoq yoshlari Xiva va Buxoro madrasalarida ham ta’lim olganlar. Qoraqalpoqlarning xalq og’zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari 20 jildlarning nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular so’z ustalari bo’lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larini sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. O’zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning qiziqchisi O’mirbek laqqisi bor. O’mirbek laqqi o’z og’zaki latifalarida ayrim shaxslar va jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavdalangan. U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so’zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylar kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to’g’rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. U o’z latifalarini yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab, tinglovchilarni xursand qilgan. Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma’lum. Ulardan “Qirqqiz”, “Alpomish”, “Qo’blan”, “Mastposhsho”, “Edigey” dostonlarida qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, “Edigey” dostonida Amir Temur, To’xtamish faoliyati bilan bog’liq voqealar bayon etilsa, “Qirqqiz” da qoraqalpoq xalqining XVIII asrda jung’or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o’z badiiy ifodasini topgan. Qoraqalpoqlarning xalq qo’shiqlarida el-yurt yo’lboshchilari, qahramonlari Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo’stbiiy, Ernazarbiylar ulug’lanadi.

Qozoq ma’rifatparvar olimi Cho’qon Valixonovning: “Qoraqalpoqlar sahrodagi birinchi shoir ham qo’shiqchilardir, shundan keyin qirg’izlar va turkmanlar”, degan so’zlari bejiz aytilmagan. Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan “Qirqqiz” dostoni alohida o’rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik episidir. Bu doston atoqli xalq baxshisi (jirovi) Qurbonboy baxshi Tojiboy o’g’lidan 1939-1940-yillarda yozib olingan. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g’oyalari bilan sug’orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o’zining qirq nafar dugonasi va o’z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda jung’or xoni Surtoyshi hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o’zbek

va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan Oltinoy, O'tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda dushmanga nisbatan shafqatsizlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Qoraqalpog'iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiylar arxeologik va me'moriy yodgorliklari, o'ziga xos xalq og'zaki ijodi, ijro san'ati, urf-odatlari va milliy hunarmandchilik faoliyatida aks etadi. Qoraqalpog'iston hududida ko'plab arxeologik va me'moriy yodgorliklar bo'lib, ular asosan mudofaa binolari va aholi turar joylari bo'y lab qad rostlagan bir necha ajoyib qal'alar misolida o'z aksini topadi. Ularning eng qadimiysi miloddan avvalgi IV asrga (Qadimgi Xorazmning Ahamoniylar imperiyasi tarkibidan chiqishi davri) borib taqaladi. Miloddan avvalgi I asrning boshlarida Qadimiy Xorazm, Kushon imperiyasiga qadar yetib borgan madaniyatning ta'siri ostida qoldi. Buning eng yorqin misolida, ajoyib Tuproq-qal'a shahri va qal'asining qurilishini ko'rish mumkin. Bu davrga kelib, qurilishning yangicha shakllari, shu jumladan, aholi punktlari ichidagi shakli biroz kichikroq qal'alar paydo bo'lди.

Qadimgi Xorazm shuningdek, zardushtiylikning vatani hisoblanadi. Bunga, saqlanib qolgan ko'plab arxeologik yodgorliklar: dahmalar, olovga sig'inadigan ibodatxonalar, ossuariylardan iborat (mayyitlar suyaklari) qabristonlari va boshqalar dalolat beradi. VIII asrda Islom dini kirib kelishi bilan nafaqat ushbu hududdagi aholining turmush tarzi va dini, balki shaharning arxitekturasi ham katta o'zgarishlarga uchradi. Ilk pishgan g'isht paydo bo'lди va undan ajoyib me'moriy bezaklar va epigrafik yozuvlar bilan bezatilgan serhasham maqbaralar, masjidlar va gumbazli xonaqohlar qurildi.

Orolbo'yi mintaqasi, minglab yillar davomida madaniyatlarning chorrahasida bo'lган. Ushbu mintaqadan Ustyurt platosi orqali Yevropa, Kavkaz, Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari orasida madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlanishida katta hissa qo'shgan Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishlaridan biri Don daryosining pastki oqimida joylashgan katta qadimiy Tanais shahridan o'tgan. Keyinchalik u janubiy rus tepaliklari, Quyi Povoljye, Orolbo'yini kesib o'tib, Janubiy Qozog'iston orqali Oltoy va Sharqiy Turkistonga chiqqan va Buyuk Ipak yo'lining asosiy katta yo'li bilan birlashgan degan farazlar mavjud. Shimoliy Orolbo'yidan Xorazm orqali o'tgan ushbu yo'lning yo'nalishlaridan biri So'g'diyona va yanada janubroqqacha borgan. Shunday qilib, Buyuk Ipak yo'li tarixi bilan bog'liq bir necha ming tarixiy va me'moriy yodgorliklar, Farg'ona vodiysidan Orol dengizi sohiligacha bo'lган hududda joylashgan.

Qoraqalpoqlarning o'ziga xosligi, ularning xalq og'zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo'lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo'shiqchi-mashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi. Qoraqalpog'iston ana'nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo'lган. Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O'rta asr Markaziy Osiyo ko'chmanchilari san'ati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiliği, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy-ro'zg'or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog'och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to'qishgan shuningdek, qiyqimlar to'qimachiligi bilan shug'ullanishgan. Barcha voyaga yetgan ayollar kashtachilik hunarini egallashgan. Erkaklar esa murakkabroq hunar turlari bo'l mish, yurtalar va musiqiy asboblarni tayyorlash, yog'och o'ymakorligi, zargarlik buyumlari, terini qayta ishslash va boshqalar bilan mashg'ul bo'lishgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 9-sinf O'zbekiston tarixi darsligi
2. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositası. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 1(6), 139-145.
3. Rajabov, T. I., & Oripov, N. O. (2022). Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 409-412.
4. Rajabov T. I., Rutamova M. F. The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.
5. Rajabov, T. I. (2022). THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 884-889.
6. Rajabov, T. I., & Rajabov, J. I. (2022). The Formation of Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs is an Urgent Pedagogical Problem. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(1), 331-335.
7. Ражабов, Т. И. (2022). ХАҚ ҚҮШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 2(1), 364-368.
8. Ражабов, Т. И. (2020). тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. *Наука, образование и культура*, (3 (47)).
9. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 55-58.
10. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. *Вестник науки и образования*, (5-2 (83)).
11. Ражабов Д. З., Ражабов Т. И. Формирование и развитие узбекской народной лирики //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – С. 207-212.
12. Ражабов, Т. И. (2021). УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Наука, техника и образование*, (2-2 (77)), 84-86.
13. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
14. Тўхтасин, Ражабов Ибодович. "ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚҮШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Special issue* (2022): 64-71.
15. Ражабов, Т. И. (2022). ХАҚ ҚҮШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 2(1), 364-368.
16. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 4

17. Shadieva, S. S., Borieva, D. I., & Rakhimova, M. A. (2022). The Importance of Agricultural Mapping in Soil Science. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(3), 5-8.
18. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.
19. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
20. Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.
21. Ibodovich, Rajabov To'xtasin. "Aesthetic education of students through national values (on the example of bukhara children's folklore)." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.11 (2020): 237-240.
22. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.
23. <https://karakalpakstan.travel/uz> sayti
24. cultural-heritage\_uz sayti
25. Ziyo.net